

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish 7

G.G'.G'affarova

Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil 13

K.D.Yarashev

Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi 17

A.A.Rayimov

O'quvchilarda akkulturativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati 21

O.A.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti 25

N.M.Aliyev

Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 30

S.S.Uikanov

Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari 35

T.M.Burxanov

O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili 40

U.R.Radjapov

Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari 44

Sh.A.Mamajonov

Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir 48

F.K.Yusupova

Talabalarning ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni 53

O.O.Qodirov

O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati 58

M.M.Mamatkodirov

Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish 63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish 70

FALSAFA

I.A.Suvanov

Globallashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar 76

A.N.Meliboyev

Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari 83

G'.Z.Abduraxmonov

G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari 88

S.S.Jabborova

O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli 93

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI
KURSANTLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY VA DINIY QARASHLARINING
STATISTIK TAHLILI

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ, ДУХОВНО-
ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ВЗГЛЯДОВ КУРСАНТОВ АКАДЕМИИ
ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

STATISTICAL ANALYSIS OF SOCIO-POLITICAL, SPIRITUAL-EDUCATIONAL AND
RELIGIOUS VIEWS OF THE CADETS OF THE ARMED FORCES ACADEMY OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Burxanov Taxir Maxammatjonovich¹

¹Burxanov Taxir Maxammatjonovich

– O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi dotsenti, pffd.,(PhD)

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-
ma'rifiy va diniy qarashlarining matematik statistik tahlili qilinib, natijalar histogrammasi ifoda etilgan.

Аннотация

В статье отражено математико-статистический анализ общественно-политических, духовно-просветительских и религиозных взглядов курсантов Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан, представлена результатов гистограммы.

Abstract

The article reflects the mathematical and statistical analysis of the socio-political, spiritual, educational and religious views of the cadets of the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, presents the results of the histogram.

Kalit so'zlar: kursant, ijtimoiy-siyosiy, matematik kutilma, ishonchlik, student taqsimoti.

Ключевые слова: курсант, общественно-политический, математическое ожидание, надежность, студенческое распределение.

Key words: cadet, socio-political, mathematical expectation, reliability, student distribution

KIRISH

Ma'lumki, har qanday davlatning fan va texnikasi, harbiy salohiyati birinchilar qatorida shu davlatning manfaati uchun xizmat qiladi. Shu sababdan harbiy kasb egalaridan har tomonlama mukammal, o'z ishining bilimdon mutaxassisasi(ustasi) bo'lishini talab etadi. Zamonaviy ofitselarning o'z vatanini sevishi va unga sadoqat bilan xizmat qilish bilan birgalikda, dunyo va o'z davlatining (xududining) siyosatidan habardor bo'lishlari ham shart.

Respublikamizda oliv harbiy ta'lif muassasalari kursantlarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, harbiy ta'lif tizimini ma'naviy-axloqiy jihatdan isloh qilishda eng ilg'or innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni yangi sifat darajasiga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ayni vaqtda, aytish joizki, ko'rilibotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talablariga to'liq javob bermaydi. Kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta'lif sohasida eng ilg'or, innovatsion bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur" vazifasi doirasida, kursantlarda ma'naviy madaniyat, siyosiy, diniy qarashlarini har tomonlama gormonik rivojlantirish uchun ko'plab ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirilgan. Bu kabi jarayonlarni bajarilishini diagnostikalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida ta'lif olayotgan kursantlarning ijtimoiy kelib chiqishi, bilim darajalari va ularning soni har hil bo'lgan uchta bosqichdan 10 ta standart (psixologik jihatdan ishlab berilgan) anketa savollari asosida so'rovlar (test)) o'tkazildi. Kursantlarning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy hamda diniy qarashlari, anketada belgilangan o'nta savollarda ifodalangan bo'lib, har bir savolda uchta javob aks ettirilgan. Xususan, birinchi bosqich kursantlari 222 ta, ikkinchi bosqich kursantlari 183 ta, va uchinchi bosqich kursantlari 116 tani tashkil etib, bir hil sharoitda bir vaqtning o'zida anketa so'rovnomalariga javob berishgan.

Olingan so'rov natijalarining ijobiy (to'g'ri) javoblari 1-jadval ko'rinishiga keltirildi.


1-jadval

№	Anketa savollarining shartli raqam belgilari										Respondent soni
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1-bosqich	209	156	215	214	115	168	71	201	204	217	222
2-bosqich	176	117	94	173	180	178	179	175	182	168	183
3-bosqich	113	63	65	114	115	107	109	111	113	116	116

Olingan 1-jadval natijalarini matematik statistika qonunlari asosida tahlil qilish maqsadida to'g'ri javoblarni protsentlardagi qiymatini hosil qilib, har bir bosqich kursantlarning umumiy bilim darajasini ifodalovchi histogrammani tuzamiz (2-jadval)

2-jadval

№	Anketa savollarining shartli raqam belgilari										Respondent soni
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1-bosqich	94,1	70,2	96,8	96,4	51,8	75,7	31,9	90,5	91,9	97,7	222
2-bosqich	96,2	63,9	51,4	94,5	98,4	97,3	97,8	95,6	99,4	91,8	183
3-bosqich	97,4	54,3	56,0	98,3	90,5	92,2	93,9	95,6	97,4	100	100



1-rasm.

1, 2 va 3-anketa savollari natijasida olingan ma'lumotlarning I, II va III bosqich kursantlar kesimlarida olingan gistogramma.

2-jadval natijalaridan yasalgan histogrammadan ko'rindaniki, siz o'qiyotgan harbiy ta'limga muassasasining maqomini qanday baholaysiz? degan savolga Akademiyadagi o'qish vaqtida (1,2,3-bosqichlar) mutanosib ravishda to'g'ri javob berilgan (1-bosqich 94,4%; 2-bochqich 96,2%; 3-bosqichlari esa 97,4% muvafaqiyatga erishgan). Albatta bu kuzatish nazariyasiga asosan mantigan to'g'ri. O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kursantlarining ma'nnaviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimi qaysi huquqiy-me'yoriy xujjatga asoslanadi?, degan anketa savoliga esa teskari mutanosib (o'qish vaqtiga nisbatan yoki bosqichlarning kattaligiga) nisbatida to'g'ri javoblar olingan, ya'ni I-bosqich 70,2%; II-bosqich 63,9%; III -bosqich 54,3% natijaga erishgan

Bu ko'rsatkichlarning bosqichlar kesimidagi pasayishini, o'qish sifatining pasayishi bilan izohlash kerak emas, balkim quyi bosqichlarda, kursantlarga ko'proq harbiy ta'limga, akademiya sharoitiga moslashtirish ma'nnaviy - ahloqiy tarbiya berilayotgani bilan tushuntirish maqsadga muofiqdir.

I BOSQICH

x_i	209	156	215	214	115	168	71	201	204	217	variant
n_i	2	1	2	3	2	1	2	2	2	3	chastota

Kuzatish(tanlanma)lar hajmni birinchi bosqich kursantlari uchun topaylik.

$n = 20$ u holda, \bar{X} – kuzatishlarning o'ttacha qiymati

$$\bar{X} = \frac{1}{20} \cdot 3647 = 182,35 \approx 182,4$$

Kuzatuvchilarining o'ttacha kvadratik $\sigma(x)$ chetlanishini topaylik.

$$\sigma^2(x) = 7,4$$

Natijada, Styudent taqsimotidan foydalanib izlanayotgan aparametrni γ ishonchlik bilan qoplaydigan $\bar{X} - t_{\alpha/2} \frac{\sigma}{\sqrt{n}} < a < \bar{X} + t_{\alpha/2} \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$ ishonchlik intervalni topamiz

$$182,4 - 2,09 \cdot \frac{47,4}{4,4} < a < 182,4 + 2,09 \cdot \frac{47,4}{4,4} \quad 182,4 - 22,5 < a < 182,4 + 22,5 \\ 159,9 < a < 204,9 \quad 160 < a < 205$$

PEDAGOGIKA

II BOSQICH

x_i	176	117	94	173	180	178	179	175	182	168	variant
n_i	2	1	2	2	1	2	3	2	3	2	chastota

$$\bar{X} \approx 165 \quad \sigma^2(x) = 778,1$$

$$\sigma(x) = 27,8 \approx 28$$

Izlanayotgan matematik kuzatilishning ishonchlilik intervali (a-noma'lum parametr) quyidagicha topiladi.

$$\bar{X} - t_i \frac{\sigma}{\sqrt{n}} < a < \bar{X} + t_i \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

t_i – jadvaldan topilib eng katta xatolik bilan aytganda 0,95 (95%ni haqiqat, 5%ni esa chetlanishni) ko'rsatuvchi kattalik.

$$165 - 13,3 < a < 2165 + 13,3 \quad 151 < a < 178.$$

III BOSQICH

x_i	113	63	65	114	105	107	109	111	113	116	variant
n_i	2	1	2	2	3	3	2	2	2	1	chastota

$$\bar{X} \approx 103,3 \quad \sigma^2(x) = 17,1$$

$$\bar{X} - t_i \frac{\sigma}{\sqrt{n}} < a < \bar{X} + t_i \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

$$103,3 - 2,09 \cdot \frac{17,1}{4,4} < a < 103,3 + 2,09 \cdot \frac{17,1}{4,4}$$

$$103,3 - 8,12 < a < 103,3 + 8,12; 95,2 < a < 111,4; 95 < a < 111;$$

yuqorida matematik statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, masalan III bosqich kursantlari 95% li ishonchlik bilan aytganda, test savollarini har qanday holatda $92\% < a < 94\%$ oraliqda to'g'ri bajara olar ekan. Bu degani 116 kursantdan har doim $95 < a < 111$ ta oraliqda test savollariga to'g'ri javob olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bilim darajalari har xil bo'lgan (Akademiyada o'qigan vaqtga nisbatan) kursantlarning bir hil sharoitlarda bir xil anketa savollariga bo'lgan javoblarning bosqichlar kesimidagi kursantlarning ma'nnaviy madaniyat, siyosiy, diniy qarashlarini har tomonlama histogrammasi tuzilib izohlangan. Savollar soni ko'p bo'limgaganligidan, Styudent taqsimotidan foydalanib, noma'lum α parametrni γ ishonchlilik bilan qoplaydigan $\bar{X} - t_i \frac{\sigma}{\sqrt{n}} < a < \bar{X} + t_i \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$ ishonchli interval topildi.

Bosqichlar bo'yicha: II bosqich kursantlari bиринчи о'rinni egallagan bo'lib, 183ta kursantdan, 95% ishonchlilik bilan(aniqlikda) $151 < a < 178$ oraliqda har qanday sharoitda to'g'ri javob bera oladi. Ikkinchchi o'rinni esa, III bosqich kursantlari $95 < a < 111$ tasi 95% ishonchlilik bilan har qanday sharoitda to'g'ri javob bera oladi. Nihoyat I-bosqich kursantlari 222 tadan $159 < a < 205$ tasi 95% ishonchlilik bilan to'g'ri javoblar bera oladi. Albatta, bu kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, I bosqich kursantlari Akademiya shart-sharoitlarini boshqa raqiblariga nisbatan kamroq bilganligidan oxirgi o'rinni egallagan bo'lsa, III-bosqich kursantlari esa ikkinchi o'rinni egallashi, ular boshqa mutaxassis fanlar bilan ko'proq shug'ullanganligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashi majlisidagi "Qurolli kuchlarimiz mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir" mavzusidagi nutqi//Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil, №3.

2. Gmurman V.Ye. "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika". T.: O'qituvchi.1977